

25-Aprel, 2026-yil

**INSON RUHIYATI VA ICHKI KECHINMALARI
(S.MOEM VA O‘.HOSHIMOV ASARLARI MISOLIDA)**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Xorijiy til va adabiyoti fakulteti 1-kurs talabasi*

Akmalova Shahnoza

Annotatsiya: Ushbu maqola U.S.Moem va O‘.Hoshimov asarlarida bosh mavzu bo‘lgan inson tabiati va uning ichki dunyosi tahlili haqida. Har ikkala yozuvchi ham o‘z qarashlari orqali kishining ichki olamini ochib berishga harakat qilgan. Biri bu yo‘lda qahramonini san‘at bilan oshno qilgan bo‘lsa, yana biri oila, jamiyat tushunchalari va yoshlikdagi xotiralar bilan bog‘lagan. Bu esa asarlarda ilgari surilgan g‘oyani yana ham chuqurroq anglashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Inson ruhiyati, xayoliy dunyo, uslub, motiv, durdona asarlar, adabiy yondashuv, madaniy yondashuv

Jahon adabiyotida inson ruhiyati, uning ichki olamini tasvirlash muhim o‘rin tutadi. Bu mavzu turli davr va millat yozuvchilari asarlarida turlicha aks etadi. San‘at vakillari, xoh u musiqachi bo‘lsin, xoh iste‘dodli raqqos, xoh mashhur rassom bo‘lsin yoki qalami o‘tkir shoir – ularning har biri kishi qalbi, uning hissiyotlarini ko‘rgan-bilganlari, atrofdagilar taqdiridan chiqargan xulosalari orqali tasvirlaydi. Bugungi maqolamizda ham mana shunday hayot tajribasiga ega yozuvchilar Somerset Moem va O‘tkir Hoshimov asalaridagi inson ruhiyati tasviriga nazar tashlaymiz.

Uilyam Somerset Moem - jahon adabiyoti vakillari orasida o‘zining boshqalarnikiga o‘xshamaydigan yo‘nalishi bilan ajralib turadigan ijodkor. Uning asarlari insoniyatning chinakam olam va xayoliy dunyosi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettirganligi bilan o‘quvchini chuqur mushohadaga undaydi. Ana shunday san‘at durdonalaridan biri “Oy va chaqa” asaridir. Bu asar asosan Moemning o‘zi – Londonda yashovchi yosh, ijod qilishni istagan yozuvchi va dramaturg nuqtai nazaridan yozilgan. Bosh qahramon Striklend ismli o‘rta tabaqaga mansub yaxshi daromadli birja brokeri edi. U san‘atga shunchalik qiziqadiki, hatto bu yo‘lda oilasi, farzandlaridan kechib bir nechta mamalakatlarida ochlik, nochorlikda kun kechiradi. U ichki dunyosini o‘zi yaratgan rasmlarda aks ettirishga harakat qiladi, hayotdagi moddiy qulayliklarga esa umuman e‘tibor bermaydi va atrof-muhitga befarq bo‘ladi. Striklend uchun asosiy maqsad ichki ehtiyojni qondirish edi.

Atoqli o‘zbek yozuvchilaridan biri bo‘lgan O‘tkir Hoshimov asarlarida esa millatimizning haqiqiy jonkuyar insonlari tavsifi, or-nomus, mehr-muhabbat tushunchalarini uchratishimiz mumkin. Adibning ko‘plab kitobxonlar tomonidan sevib o‘qiladigan “Dunyoning ishlari” asari bizning mehribon onalarimizga bag‘ishlangan. Hatto taniqli yozuvchi Said Ahmad ham O‘tkir Hoshimovning san‘at namunasiga “ Uni o‘qib o‘z onalarimizni eslab ketamiz...”- deya ta‘rif bergan. “Dunyoning ishlari” tarkibiga kirgan har bir hikoyada yozuvchi onasi bilan bog‘liq bolalik xotiralarini yodga oladi. Bu esa kishining

25-Aprel, 2026-yil

hayoti bolalik va ayniqsa onasi bag‘rida qanchalik g‘am-tashvishsiz, tinchlik va xursandchilikda o‘tishini anglatadi.

Yuqoridagi ikkala asar ham yozuvchilarning hayotiy tajribalari bilan bog‘liq va ularda xotiralar tajassum topgan. S.Moem ham, O‘.Hoshimov ham hayotiy voqealarning kishi hayotiga ta‘sirini ochib berishga harakat qilgan. Buni Striklendning tabiatdan ilhom olganligi, atrofdagi go‘zallik uning tuyg‘ularini junbushga keltirganligi va “Alla” hikoyasida yozuvchi onaning bolasiga aytayotgan allasini eshitib bolalik xotiralarini eslab, o‘sha damlarni sog‘inganligida ko‘rishimiz mumkin. Asarlar nafaqat o‘xshashliklarga ega, balki farqli jihatlardan ham xoli emas. Negaki S.Moem asarida Striklend o‘z ichki ehtirosi va san‘at uchun jamiyatdan voz kechadi. U individual shaxs sifatida tasvirlanadi. O‘Hoshimov ijodida esa inson jamiyat va oila bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rsatiladi.

Xulosa qilib aytganda, asarlar inson ruhiyatini turli madaniy yondashuv orqali ochib beradi. Yozuvchilardan biri individual insonni, yana biri esa jamiyat ichidagi kishini tasvirlaydi. Shu sababli ikkala asar ham kishi tabiatini chuqur tushunishga yodam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://uz.wikipedia.org>. “Dunyoning ishlari”
2. <http://archive.org>. “The Moon and sixpence”